
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 7-8

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL ADABIYOT TA'LIM



Philological research: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 7-8

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.08.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, *iqtisod fanlari doktori, professor*

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, f.f.f.d. *(PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Amonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.08.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, *доктор экономических наук, профессор*

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*

Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*

Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*

Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*

Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*

Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*

Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*

Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Нормат Юлдашев, *к.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*

Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Шоира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.08.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, *doctor of economic sciences, professor*

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, PhD, *associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Amonturdieva, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

Tilshunoslik

МАМАТОВ АБДИ ЭШОНҚУЛОВИЧ
Инсон, тил ва маданият триадаси ёки маданият инсонга нима беради? 7

ASHIRBOYEV SAMIXON
«O‘zbek dialektologiyasi» fani ta’limi mazmuni uyg‘unligi 10

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalarning antropotsentrik lug‘atini tuzish tamoyillari xususida 14

МАМАТОВ АБДУҒОФУР
Фразеологик бирлик тушунчаси талқини ва тадқиқи 18

ELTAZAROV JO‘LIBOY
Gramer kategorilerin türkçenin dilsel doğasina göre yorumlanmasi üzerine 24

ISMOILOVA DILRABO MUHAMMAD QIZI,
HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXONOVICH
Ilmiy paradigma transformatsiyasi hamda konseptual asos 30

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH,
MAHMADIYEV SHAVKATJON SUYUNQULOVICH
Matnning pragmatik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalar xususida 34

TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA,
JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA
Baho va darajalanish munosabati 38

ABDIYEV MURODQOSIM
«Davlat tili haqida»gi va u bilan bog‘liq qonunlar ijrosi masalalari xususida 44

МЕНГЛИЕВ БАХТИЁР РАЖАБОВИЧ
Ўзбек лингвистик саноати истиқболлари 50

SHUKUROV OTABEK ULASHEVICH
Globallashuv sharoitida milliy til masalalari 56

FAYZIYEVA XADICHA CHORIYEVNA
Surxondaryo o‘zbek shevalarida o‘zlashgan so‘zlar 59

DUSTMURODOV MA’RUFJON MANSUR O‘G‘LI
Qadimgi turkiy tildagi markaziy hokimiyat bilan aloqador ayrim
harbiy unvonlar xususida 63

МУНДАРИЖА

Tilshunoslik

OSTONOV O‘TKIR YANGIBOEVICH
Qishloq turizmga oid terminlarning lingvistik tahlili 67

TILLABAYEVA ZILOLA RAXMATILLAYEVNA
Samarqand viloyati qarluq shevalarida olmoshlar 70

TEMIROVA KAMOLA
«O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati»da berilgan
gastronomik birliklarning semantik guruhlanishi 74

KURBONMURATOV ABROR
Ekstremistik matnda muallif belgilari 80

NURALIYEV G‘OLIBJON QURBONBOYEVICH
Taqlid so‘zlar orqali ifodalangan tovush va
harakat-holatning davomiylik semasi
(Tog‘ay murod asasrlari misolida) 83

CHORIYEVA CHAROS SALOMOVNA
Diniy leksika, tasavvufiy leksika va mifologik leksika:
tasnif va talqin muammolari 86

NURIDDINOVA NAFISA MUXIDDIN QIZI
O‘zbek tilida ayrim uzumchilikka oid leksikaning lingvokulturema sifatidagi talqini 89

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SAMARQAND VILOYATI QARLUQ SHEVALARIDA OLMOSHLAR

Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi

O‘zbek tilshunosligida turkiy xalqlar shevalarini o‘rganish bo‘yicha M.Koshg‘ariy, M.Zamaxshariy, A.Navoiy kabi adiblar ham kuzatishlar olib borganligi ma’lum. O‘n to‘rt yil davomida turkiy ellarni kezib material to‘plagan, 6800dan ziyod turkiy so‘zlarni guruhlagan M.Koshg‘ariy ba’zi turkiy xalq va elatlarning ikki tilli ekanini va bu o‘z navbatida xalq tilida ayrim salbiy jihatlarni keltirib chiqarayotganligini qayd etadi[1]. O‘tgan asr boshlarida o‘zbek xalq shevalarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchaydi. Rus va o‘zbek olimlari tomonidan o‘zbek tili lahjalarini tadqiq etish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Rus olimlaridan Y.D.Polivanov o‘zbek shevalarida vokalizm to‘g‘risida tadqiqot olib bordi [2], A.Borovkov esa shevalarni tadqiq etar ekan, o‘z e’tiborini o‘zbek-tojik ikki tilliligiga qaratdi[3]. N.A.Baskakov[4], M.Sh.Shiraliyev[5], E.V.Sevortyan[6], N.Z.Gadjiyeva[7] kabi olimlar ham turkiy tillar shevalarini o‘rganish bo‘yicha salmoqli ishlarni amalga oshirdilar.

O‘zbek dialektologiya sohasida shevalarni yaxlit holda o‘rganishga Abdurauf Fitrat, M.Behbudiy, G‘ozi Olim Yunusov, Y.D.Polivanov, K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Shermatov, S.Ibrohimov, F.Abdullayev, M.Mirzayev, X.Doniyorov, B.Jo‘rayev, O.Madrahimov, N.Rajabov kabi olimlarning mehnati samarasi o‘laroq, monografik tadqiqotlar yaratildi[8]. O‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari A.To‘raqulov, N.Murodova, M.Saidova, M.Begaliyev, R.Yo‘ldoshev, A.Allaberdiyev, Y.Bobojonov, N.Shoimova kabi zahmatkash olimlarning ishlarida tarixiy-qiyosiy usuldan foydalanilgan holda tadqiq qilingan[9]. U.Tursunov, B.O‘rinboyev[10], X.Doniyorov[11], K.Yusupov[12], D.Ishondadayev[13], H.G‘ulomov[14],

[1] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент, 1960. 1-том. – Б. 65-66.

[2] Поливанов Е.Д. Вокализм говора гор. Самарканда (глава из описания двуязычной системы) // Доклады АН СССР. – Ленинград: Акад. наук СССР, 1928, №14. – С. 306-312; Поливанов Е.Д. Материалы по грамматике узбекского языка. –Ташкент, 1934.

[3] Боровков А.К. Таджикско-узбекское двуязычие. – Москва, 1952.

[4] Баскаков Н.А. Ногайский диалект. – М-Л.: Изд-во АН СССР, 1940.

[5] Ширалиев М.Ш. Состояние и задачи дальнейшего развития тюркской диалектологии в СССР. – Советская тюркология, 2, Баку, 1980.

[6] Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М., 1980.

[7] Гаджиева Н.З. Тюркоязычные ареалы Кавказа.–М.: Наука, 1979.

[8] Решетов В.В. О Намангаском говоре узбекского языка. – М.: Изд-во АН СССР, 1953. Ражабов Н. Қарноб шевасида феъл категорияси. – ЎзДУ асарлари, 77-янги серия, Самарқанд, 1958. Шерматов А. Қарши шеваси лексикасидан намуналар. – 2-китоб. – Тошкент, 1961; Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Ўз ССР ФА нашриёти, 1962. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент, Ўз ССР ФА нашриёти, 1964. Джураев Б. Шахрисябский говор узбекского языка. – Тошкент: Фан, 1964. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент: Фан, 1967. Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро гуруҳ шевалари.– Тошкент: Фан, 1969. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси.– Тошкент: Фан, 1973. Дониёров Х.Д. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979.

[9] Тўрақулов А. Қўқон группа шевалари лексикаси: Филол. фанлари номзоди… дис.– Тошкент, 1974. Саидова М. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили: НДА. – Тошкент, 1995. Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси: НДА. – Тошкент, 1997. Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё “же”ловчи қипчоқ шевалари лексикаси: НДА.–Тошкент, 1999. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи.– Тошкент: Фан, 2005. Бегалиев М.Қ. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеваси. – Тошкент: Иқтисод- Молия, 2007. Аллаберdиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси: Филол. фанлари номзоди… дис. –Тошкент, 2018.

[10] Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.

[11] Донияров Р. Рус тилидан ўзлашган шахс номлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. –Тошкент, 1965.

[12] Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. –Тошкент: Фан, 1974.

[13] Ишондадаев Д. Некоторые особенности словообразования в таджикских и узбекских говорах Наманганских группы районов (к проблеме таджикского в узбекиского языкового взаимоотношение): Автореф. дисс. канд… филол. наук. – Ташкент, 1967.

[14] Гулямов Х.Г. Узбекско-таджикские языковые связи (лексико-этимол. исследование) .–Ташкент: Фан, 1983. –167 с.

B.Djaborov[1] O.Azizov, J.Bo‘ronov, T.Rahmonov, M.Mirzayev[2], E.Panasenko[3], R.Rajabova[4] R.Xidirov[5], M.Zokirov[6], Sh.Jo‘rayev[7] kabi olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda shevalar bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Ayniqsa, sheva materiallarini to‘plash va tadqiq etish bo‘yicha bu davrda Samarqand davlat universitetida V.Egamov, N.Rajabov, M.Valiyevlar tomonidan Baxmal, G‘allaorol shevalarini o‘rganishga oid tadqiqotlar yaratildi. Samarqand viloyatining ayrim tumanlaridagi qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining tadqiq etilishida professorlar Xudoyberdi Doniyorov va Nazar Rajabovlarning hissalari beqiyos[8].

Tarixdan ma’lumki, qarluqlar tili va lahjasi butun o‘lka qabilalari uchun umumiy bo‘lgan. Bu haqda olim Karim Shoniyozovning aynan shu masalaga bag‘ishlangan ishlaridagi ayrim mulohazalariga to‘xtalib o‘tsak: «Qarluq lahjasi tarixan qarluq urug‘larining rivojlanishi asosida shakllangan va ular qadimgi tukyu (turk) qabila birlashmasiga mansub bo‘lib, uzoq o‘tmishda Oltoyning g‘arbiy tumanlarida yashaganlar. Turk xoqonligining tashkil topishi bilan (552-yilda) g‘arbiy Oltoydan chiqib, Irtish daryosi sohillarini, Jung‘oriyani, Mo‘g‘ul tog‘ining janubiy yon bag‘ridan to Ile daryosining shimoligacha bo‘lgan hududni egallaydilar. Qarluqlarning katta qismi VI asr o‘rtalarida Sharqiy Turkistonni, Farg‘onani, Toxaristonning ayrim hududlarini tasarrufiga kiritgan edilar. X asarda Yettisuvni ishg‘ol qilgan va katta hududda hukmronlik qilganlar. Shunday qilib, VIII-X asrlarda Ile daryosidan to Sirdaryogacha, hozirgi Chimkent shahridan to Sharqiy Turkistongacha bo‘lgan o‘lkada yashagan barcha turkiy qabilalar qarluqlar hukmronligi ostida bo‘lgan. Qarluqlarning tili shu o‘lkadagi barcha qabilalar uchun umumiy bo‘lgan. Yettisuv, Farg‘ona vodiysi, Sharqiy Turkistonning Torim daryosigacha bo‘lgan hududda qarluqlar bilan birga chigil, xalaj, yag‘mo qabilalari ham yashaganlar, uyg‘urlar ham qarluqlar tarkibida bo‘lgan» [1: 481-490-bet].

Shuningdek, olimning Samarqand hududidagi qarluqlar elatining o‘rni, aloqasi, o‘troqlashuvi haqidagi ma’lumotlari ham diqqatga sazovor: «Movarounnahrda qariyb 200 yil hukronlik qilgan Qoraxoniylar (qarluq) davlati 1041-yilda ikkiga bo‘linadi. Natijada g‘arbiy qismining markazi Buxoro, keyinchalik Samarqand bo‘lgan» [2: 237-bet].

Shunday qilib, IX-X asrlarda Yettisuvda, Toshkent vohasida, Movarounnahrda turg‘un yashovchi turkiyzabon aholi, yarim ko‘chmanchi, yarim o‘troq qavmlar uchun qarluq tili umumiy bir til bo‘lib qolgan.

Tilning bu o‘zgargan formasiga o‘tishda chigillarning ham roli katta bo‘lgan. Qarluq-chigil tili bu qabilalar bilan yonma-yon va aralash yashagan boshqa turkiy qabilalarning va turg‘un yashovchi turkiy aholining dialektlarini birlashtirishda asos bo‘lgan, albatta [3: 269-bet].

Gapda ot, sifat, son, ravish, fe’l, so‘z birikmasi, matnga ishora qilib, ular o‘rnida qo‘llanuvchi, aniq lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlar olmosh deyiladi. Olmoshlar turlanib, gapda ko‘pincha ega, to‘ldiruvchi aniqlovchi, undalma bo‘lib keladi. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Mazkur turkumga doir so‘zlar aniq lekisik ma’noga ega bo‘lmaganligi uchun ‘‘ichi bo‘sh so‘zlar’’ ham deyiladi.

Demak, mustaqil so‘z turkumlaridan biri bo‘lgan olmoshlar Samarqand viloyati qarluq shevalarida boshqa so‘z turkumlari kabi talaffuz jihatdan adabiy tildan biroz farqli ekanligini kuzatish mumkin. O‘zbek adabiy tilidagi kishilik olmoshlarining birinchi va ikkinchi shaxs birligi *men, sen* shakllari shevada *män, sän* ko‘rinishida talaffuz qilinadi.

Shuni ham qayd etib o‘tish lozimki, «O‘rxun Enasoy», «Devoni lug‘otit turk», «Qutadg‘u bilig», shuningdek, Alisher Navoiy asarlari matnini kuzatganimizda ham birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari *man, san,* ba’zan *ban* shaklida uchraydi.

Qolaversa, olim Nazar Rajabov birinchi va ikkinchi shaxs men, sen kishilik olmoshlarining Toshkent, Marg‘ilon, Jizzax, Qo‘qon, Shahrisabz, Buxoro, Samarqand, Qarshi, Kitob, Parkent kabi shevalarda *män, sän* deb ishlatilishini qayd etib o‘tadi. Shuningdek, Samarqand viloyatidagi Kattaqo‘rg‘on, Urgut, Qarnoq, Payshanba,Yangqo‘rg‘on, turk-barlos, arab, eroniy, dahbet va boshqa shevalardagi xususiyatlar ham o‘ziga xosdir: *säŋä išim bā:; säni qäräjä, ālāv dep kulli ālip kelipsän* (Qarnob, Qattaqo‘rg‘on); *män*

---

[1] Джаборов Б. Номинации значений свойства в таджикском и узбекском языках: Дисс... канд. филол. наук. – Хўжанд, 2009.

[2] Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро гуруҳ шевалари. – Тошкент: Фан, 1969.

[3] Панасенко Э. Д. Семантико-синтаксические особенности узбекско-русской интерференции (на материале русских слов в узбекской устной обиходно-бытовой речи): Дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. − Ташкент, 1984. −167 с.

[4] Ражабова Р. Сопоставительный анализ лексических единиц таджикского и узбекского языков в условиях взаимодействия: Дисс... канд. филол. наук. –Душанбе, 2007.

[5] Хидиров Р. Лексические изменения таджикского и узбекского языков конца XX - начала XXI веков: Дисс... канд. филол. наук. –Хўжанд, 2009.

[6] Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши: Автореф. дисс... канд. филол. наук. –Тошкент, 2007.

[7] Жўраев Ш. Билингвизм шароитида тожик ва ўзбек тилларининг лексик сатҳдаги ўзаро алоқалари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2018.

[8] Абдиев М. Самарқанд вилояти ўзбек шеваларининг ўрганилиш тарихи ва долзарб масалалари // Истиқлол даври ўзбек диалектологиясининг долзарб муаммолари. − Самарқанд, 2017. −Б.55-59.

inäl säγäppän; sän iškä bälliŋmi? (Urgut, Samarqand) kabi[1].

Bularning ko‘plikdagi shakli adabiy til va boshqa shevalardan deyarli farq qilmaydi: *biz, siz, ulä* kabi. Faqat talaffuzdagina biroz fonetik o‘zgarish sodir bo‘ladiki, u ham bo‘lsa olmoshlardagi *i* unlisi Buxoro shevalariga xos bo‘lgan *i* kabi yoki tojik tili shevalariga xos tarzda eshitiladi.

Demak, III shaxs ko‘plikda kishilik olmoshi ular aynan Samarqand viloyati qarluq shevalarida *r* undoshining kam titrashi natijasida odatda tushib qoladi va *ulä* ko‘rinishida talaffuz qilinadi: *Ulä šähärgä jäšäjdu* (Urgut).

Agar bu olmoshlar egalik va son qo‘shimchalari bilan turlansa, quyidagi o‘zgarishni kuzatish mumkin: *mäni, säni, bizni, uni, bizni//bizdi, sizni//sizdi, ulärni// ulardi* singari.

Qaratqichli birikmalarda qaratqichning qaralmish bilan o‘zaro muvofiqligi buzilishi kuzatiladi: *bizläni hävlimiz, bizläni gulimiz* kabi.

Mazkur hudud shevalarida kishilik olmoshlariga ko‘plik qo‘shimchasi *–lär* turli shakllarda qo‘shilib kelishini ko‘rishimiz mumkin: *–lär, –lä, –ä.* Jumladan, *Silä qäjläga bäddiŋlä. Bizzädi ujdä ertäjä toj kelädi* (Urgut).

O‘zlik, so‘roq olmoshlarining talaffuzi adabiy tildan deyarli farq qilmaydi: *kimdi, nimejä, ozim, oziŋ, qačän, negä, qänčä* kabi. *Bir nima, bir narsa* gumon olmoshlari fonetik o‘zgarishga uchraydi: *binnimä, binnesä* singari.

Alla elementi bilan hosil qilinuvchi gumon va belgilash olmoshlari xuddi adabiy tildagi kabi talaffuz qilinadi: *älläнimä, älläqäčän, hämmä, här bir* kabilar shular jumlasidan.

Bo‘lishsizlik olmoshi odatda *hech* so‘zi orqali yasaladi. *Hech* birligi shevada boshqa so‘zlar bilan birgalikda yasalganda o‘zi bog‘lanib kelgan o‘zaklarga ta’sir qilishini quyidagi misollar orqali ko‘rish mumkin: *Hištimä jegänim joq. Išläjätgänimdän beri hičqegä čiqmäduk. Hištimägä siqilmäŋ* (Kattaqo‘rg‘on).

Samarqand viloyatining ayrim tumanlarida *hičqäqä// hičqäqqä, hičqätkä, hištimä, hičnimä* kabi ko‘rinishlarda uchraydi.

Umuman olganda, Samarqand viloyati qarluq shevalarida olmoshlar adabiy tildan va boshqa yondosh shevalardan biroz farqlanadi. Biroq ko‘rsatish olmoshlardagi *u, bu, shu, o‘sha* kabilar *yer, yoq* kabi o‘rin-joyni anglatuvchi so‘zlar bilan birgalikda qo‘shma ravishlarni hosil qilganda hamda kelishik, ko‘plik qo‘shimchalari bilan turlanganda adabiy tilimizdagi va Toshkent, Marg‘ilon, Andijon, Buxoro, Navoiy kabi shevalarda qo‘llanadigan olmoshlardan shaklan o‘zgachaligini kuzatish mumkin.

Ma’lumki, ko‘rsatish olmoshlari predmetning uzoq yoki yaqinligiga qarab turlicha shakllarda ishlatiladi. Mazkur olmosh turi Samarqand viloyati qarluq shevalarida ham grammatik, ham talaffuz jihatdan o‘zgachaligi bilan ajralib turadi. Bu jihatni quyidagi misollar orqali ko‘rsatib o‘tish mumkin:

Biz tadqiq qilayotgan shevada qayerga? qayerda? qayerdan? qayoqqa? qayoqdan? so‘roqlariga javob bo‘luvchi *shu yerga, shu yerda, shu yerdan, shu yoqqa, shu yoqdan* so‘zlari, qolaversa, *o‘sha* so‘roqlarning o‘zi turli o‘zgarishlarga uchrab talaffuz qilinadi.

Jumladan, *qayerga* degan so‘zning o‘zini tahlilga tortib ko‘rsak:

a) so‘zning birinchi bo‘g‘inidagi *a* unli fonemasi oradan tushib qoladi, uning o‘rnida maksimal darajada qisqargan *i* unlisi hosil bo‘ladi[2].

b) *r* undoshi hisobiga so‘zning ikkinchi bo‘g‘inida *e* unlisi uzayib, shevada *qe:gä* shaklida talaffuz etiladi: ikkinchidan jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklarining har ikkala formasi uchun (qayerga uchun ham, qayerda uchun ham) bir varinatning *qe:gä*ning o‘zi ishlatila beradi[3].

Samarqand viloyati qarluq shevalarida muloqot qiluvchi aholi nutqida mazkur olmoshning juda qisqarib ketgan *egä, begä, šegä, ošegä* ko‘rinishidagi shakllarini uchratishimiz mumkin. Xuddi shu olmoshlarga *änä, mänä, ho:nä* kabi variantlari qo‘shilsa, shu birliklarning oxiridagi *ä* unlisi tushib qolib talaffuz qilinadi: *änegä, mänegä, änošegä, hä:änegä, hä:änešegä* singari. *Mäbegä* qo‘shma ko‘rsatish olmoshida *mänä* asosining *nä* qismi tushib qoladi. Ammo so‘zlar undosh tovush bilan boshlanganda *mänä, änälar*dagi ikkinchi *ä* unlisi saqlanib qoladi: *änäbe:gä, mänäše:gä* kabilar shular jumlasidan.

Qay olmoshi *yoq* so‘zi bilan birga qo‘llanganda fonetik o‘zgarishga uchraydi. Jumladan, o‘zbek adabiy tilidagi *qayoqqa* birligi shevada *qäqqä, qeqqä* tarzida talaffuz qilinadi. Bunda birinchi bo‘g‘indagi *ä* unlisi tushib qoladi yoki saqlanishi ham mumkin, *yo* unlisi *e* tovushiga o‘zgaradi: *eqqä, beqqä, šeqqä, ošeqqä* kabi ko‘rinishlari bor.

Mazkur so‘zlar jo‘nalish kelishigi bilan turlanmasdan yolg‘iz qo‘llansa, *ex, bex, šex, ošex* shakllarida talaffuz qilinadiki, *u* va *yu* tovushlari birlashib ketib, *e* unlisi sifatida talaffuz qilinadi: *Ex-bexi täzäläpti. Šexni tänläjluk* (Urgut).

Ushbu holatdan tashqari yana bir xil fonetik hodisaga uchragan shakli ham keng qo‘llanadiki, o‘rin-

[1] Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. − Тошкент: Ўқитувчи, 1996 − Б.172.

[2] В.В.Решетов. О Намангаском говоре узбекского языка. Москва, 1953.- Б.220.

[3] Ҳ. Ғуломов. Ургут шевасида олмошлар//Ўзбек диалектологиясидан материаллар . – Тошкент,1961. –№2. – Б.154.

payt kelishigi o‘rnida keluvchi *–ga* jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi *–gä, -ä* tarzida talaffuz qilinadi: *erä // ergä, berä // bergä, šerä // šergä, ošerä // ošergä* kabi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ushbu so‘zlar yolg‘iz qo‘llanmasdan o‘zidan keyin asosan fe’l so‘z turkumiga mansub so‘z bilan birgalikda qo‘llanadi: *Qerä bäräsiz, pičä oturiŋ. Šerä beräverіŋ. Berä keläver. Ošergä bärip otiräverämizmi?*(Oqdaryo)

Shuningdek, o‘zbek adabiy tilidagi *u yerga* qo‘shma ravishiga ham qo‘shimchasi qo‘shilib keladigan birliklar Samarqand viloyati qarluq shevalarida quyidagicha fonetik hodisaga uchraydi: *u yerga ham= ijergäjäm //elgäjäm*. Bundan ko‘rinib turibdiki, jo‘nalish kelishgi to‘liq saqlanib qoladi, *h* undoshi *y* tovushiga o‘zgaradi.

Ayrim holatlarda mazkur shevada *qayerga* so‘roq olmoshining juda tez talaffuz qilinishi natijasida tarkibidagi *y,e,r* tovushlarining tushib qolib, jo‘nalish kelishigi ta’sirida ä: tovushi ko‘rinishida uzayishi mumkin: *Qizim, qäkä ketāpsän?*

Bu holat Buxoro, Qarshi o‘zbek shevalarida ham kuzatilishi mumkin ekan: *Hä:bbiji qä:ketāpsiz? Heč qä:gä (Hu ona, qayerga ketyapsiz? Hech qayerga)*[1].

Yuqorida keltirib o‘tilnan *qegä, šegä, ošegä, šeqqä, ošeqqä* kabilar ko‘plik qo‘shimchalari bilan birgalikda qo‘llanganda *–lar* ko‘plik qo‘shimchasi ham fonetik hodisaga uchraydi: *Qellägä//qellä: ketip qälliŋ?* (Qayerlarga ketib qolding?) *Ellägä bämä.* (U yerlarga borma.) *Bellägä//bellä: dokān degän nesä bämi ozi?* (Bu yerda do‘kon degan narsa bormi o‘zi?) (Kattaqo‘rg‘on)

Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, ushbu sheva vakillarining ayrimlari nutqida so‘z oxiridagi kelishik qo‘shimchasi *-ga* ishlatilmay, qisqalikni ta’minlash maqsadida ko‘plik qo‘shimchasidagi *–a* unlisi hisobiga cho‘ziqlik hosil qiladi.

Samarqand viloyati qarluq shevalarida muloqot qiluvchi aholi nutqida ko‘rsatish olmoshlari bilan birga qo‘llaniluvchi *u yer, bu yer* so‘zlari tushum kelishigi bilan turlansa, *-ni, -di, -ti* shakllarda uchraydi: *Ujni tāzäläduk. Eddi šipirip qoj. Beddi jertuti zor bolädi-da. Ošetti pijāzini otoq qil, bäläm* (Urgut).

Mazkur hudud shevasida uchraydigan assimilyatsiya hodisasi boshqa hudud shevalarida ham uchraydi. Xususan, Qarshi, Namangan shevalarida va uyg‘ur tilida ham uchraydi. Namangan shevasida, ayrim so‘zlarda yonma-yon kelgan *r+d* tovushlari (boshqa tovushlar ham) albatta, assimilyatsion holatga o‘tib, *d+d* hosil qiladi. Buni yuqoridagi so‘zlarda emas, balki parda, burda, Mardon kabi so‘zlarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin[3].

Samarqand viloyati qarluq shevalarida ko‘rsatish olmoshi *yoq* so‘zi bilan birga kelib, tushum kelishigi bilan turlansa, *-ti* sifatisha talaffuz qilinadi: *exti, bexti, šexti, ošexti* tarzida.

Shuningdek, ushbu shevada ko‘rsatish olmoshlari bilan ko‘pincha birga qo‘llanadigan *yoq, yer* so‘zlari chiqish kelishigi bilan turlanganda ham kuchlik fonetik hodisaga uchrab, *eddän, beddän, bextän, extän* ko‘rinishida talaffuz qilinadi. *Ex-bextän bedälä osip čixipti (*Tayloq*).*

Fikrimizning matiqiy davomi sifatida ko‘rsatish olmoshlari bilan birga qo‘llaniluvchi *yoq, yer* so‘zlarini, ya’ni qo‘shma yasama ravishlarni tayanch shevalar bilan jadvalda solishtirib ko‘rsak[4]:

Adabiy til	Sam.vil.q.sh.	Toshkent	Farg‘ona	Namangan	Jizzax	Qarshi
qayerdan	qeddän	qättän	qättän	qeddän	qettän	qeddän
u yerdan	eddän	ottän	ättän	eddän	ettän	eddän
bu yerdan	beddän	bottän	bättän	beddän	bettän	beddän
shu yerdan	šeddän	šottän	šättän	šeddän	šettän	šeddän
o‘sha yerdan	ošeddän	ošättän	äšättän	ošeddän	ošettän	ošeddän

Mazkur qiyosdan yaqqol ko‘rinib turganiday Samarqand viloyati qarluq shevalari adabiy til, Toshkent, Farg‘ona hamda Jizzax shevalaridan sezilarli tarzda farqlanib turar ekan. O‘z navbatida Namangan va Qarshi shevalariga talaffuz jihatdan yaqin ekan.

---

[1] *Мирзаев М.* Об *употреблении дательного* и *местного* падежей в *бухарском говоре узбекского языка*// Ученые записки *Бухарского* ГПИ.–Ташкент, 1957.–С 71. Шерматов А. Ўзбек тилининг Қарши шеваси//Ўзбек тили ва адабиёти масалалари . – 1959.

[2] Решетов В.В. О наманганском говоре узбекского языка. Сб. Академику В.А.Гордлевскому. – М., 1953. – С. 299. Шерматов А. Адабий тил фактларини маҳаллий шева билан таққослаб ўрганиш (Қарши шеваси материаллари асосида) //Совет мактаби . –1959. –№11. – Б.24-28.

[3] Решетов В.В. О наманганском говоре узбекского языка. Сб. Академику В.А.Гордлевскому. – М., 1953. – С. 299. Шерматов А. Адабий тил фактларини маҳаллий шева билан таққослаб ўрганиш (Қарши шеваси материаллари асосида) //Совет мактаби . –1959. –№11. – Б.24-28.

[4] Ҳ. Ғуломов. Ургут шевасида олмошлар//Ўзбек диалектологиясидан материаллар . – Тошкент,1961. –№2. – Б.161.

Rezyume. Ushbu maqolada dastlab o‘zbek tilshunosligida turkiy xalqlar shevalarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan salomoqli ishlar tahliliga to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, qarluqlar tili va lahjasining kelib chiqqanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Samarqand viloyati qarluq shevalari va o‘zbek adabiy tilida qo‘llaniluvchi olmoshlarlar to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritilgan. Boshqa hudud shevalari bilan qiyoslangan. Qadimiy yozma yodgorliklar matnida uchraydigan olmoshlar bilan solishtirilgan. Shuningdek, mazkur til birliklari yig‘ilgan materiallar asosida tahlil qilingan.

Resume. This article focuses on the analysis of the good work carried out in uzbek linguistics on the study of the dialects of the turkic peoples. Information about the origin of the karluk language and dialect is also provided. Comments were made about the karluk dialects of the Samarkand region and the pronouns used in the uzbek literary language. Compared with dialects of other regions. Compared with the pronouns found in the text of ancient written monuments. Also, these language units were analyzed based on the collected materials.

Резюме. Данная статья посвящена анализу работы, проводимой в узбекском языкознании по изучению диалектов тюркских народов. Также приводятся сведения о происхождении карлукского языка и диалекта. Были даны комментарии о карлукских диалектах Самаркандской области и местоимениях, используемых в узбекском литературном языке. По сравнению с диалектами других регионов. По сравнению с местоимениями, встречающимися в текстах древних письменных памятников. Также на основе собранных материалов были проанализированы данные языковые единицы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«O‘ZBEK TILI SINONIMLARINING KATTA IZOHLI LUG‘ATI»DA BERILGAN GASTRONOMIK BIRLIKLARNING SEMANTIK GURUHLANISHI

Temirova Kamola,
Termiz davlat universiteti doktoranti

So‘z ma’nosining rivojlanish qonunlarini tekshirish, so‘zlarning omonimlik, sinonimlik, paronimlik, antonimlik va ko‘pma’nolilik xususiyatlarini o‘rganish tilning lug‘at boyligini aniqlashga, turli lug‘atlar tuzish ishlariga katta yordam beradi.[1]

Tilning ifoda rejasida bir-biriga qarama-qarshi holatlarni, miqdoriy o‘lchamlardagi ziddiyatlarni ko‘rish mumkin. Masalan, frazeologizmlar va sinonimiyada ifoda birliklari mazmun birliklaridan ko‘p bo‘lsa, polisemiya va omonimiyada buning aksini ko‘ramiz. Bunda shaklan bir xillikka ega bo‘lgan lug‘aviy birliklar ikki va undan ortiq ma’no bilan ish ko‘radi. Ikki va undan ortiq ma’no bir shaklga to‘g‘ri kelishi hollarini matn bartaraf etadi.[2]

Sinonimlar talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosi umumiy bo‘lgan, qo‘shimcha ma’no nozikligi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanilishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir. Ana shunday umumiy ma’no bilan o‘zaro bog‘lanuvchi so‘zlar guruhi sinonimik qatorlarni tashkil etadi. Sinonimik qatorlar ikki va undan ortqi leksmalardan iborat bo‘lishi mumkin[3]. Bir so‘z bilan aytganda, sinonim so‘zlar aniq semantik aloqa asosida bog‘langan lug‘aviy birliklarning aniq tizimidir.[1]

[1] Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 66.

[2] Bu haqda qarang: Абдушукуров Б. XI-XIV асрларга оид ёзма манбалар тили [Матн]: Монография. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – Б. 85.

[3] Ҳожиев А.Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 3